

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



УО'К: 572-055.2(=512.133)(575.123)

ZAMONAVIY O'ZBEKLAR SHAXSIYATIDA GENDER STEREOPIPLARINING NAMOYON BO'LISH DARAJASI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

СТЕПЕНЬ СОСТОЯНИЯ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКОВ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

THE DEGREE OF EXISTENCE OF GENDER STEREOTYPES IN THE PERSONALITY OF MODERN UZBEKS (NAMANGAN PROVINCE AS AN EXAMPLE)

Abdullahayeva Mushtariy Moxmud qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Tarix fakulteti "Antropologiya va etnologiya" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Ma'lumki, gender stereotiplarining namoyon bo'lishiga global jamiyatlarda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va turli madaniyatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Shuning uchun shaxs xususiyatlaridagi gender stereotiplarining namoyon bo'lishini turli madaniyatlar kesimida o'rganish dorlizarbdir. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasini aniqlash uchun o'tkazilgan maxsus tadqiqot tahlilini beramiz. Tadqiqot uchun asos sifatida S.Bemning "Jins rolining inventoriatsiyasi (Sex Role Inventory (BSRI))" nomli so'rovnomasi olindi. Unga ko'ra, S.Bem tomonidan keltirilgan androginiya tushunchasi o'rganiladi va zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi aniqlanib, tahlil qilinadi.

Аннотация

Известно, что на проявление гендерных стереотипов влияют социально-экономические изменения в глобальных обществах и по-разному проявляются в разных культурах. Поэтому важно изучать проявление гендерных стереотипов в чертах личности в разных культурах. В данной статье мы анализируем специальное исследование, проведенное с целью определения уровня проявления гендерных стереотипов в личности современных узбекистанцев. В основу исследования лег опросник С. Бема "Поло ролевой опросник (BSRI)". По результатам исследования изучается концепция андрогинной, представленная С. Бемом, и определяется и анализируется степень проявления гендерных стереотипов в личности современных узбеков.

Abstract

It is known that the manifestation of gender stereotypes is influenced by socio-economic changes in global societies and is manifested differently in different cultures. Therefore, it is important to study the manifestation of gender stereotypes in personality traits in different cultures. In this article, we analyze a special study conducted to determine the level of manifestation of gender stereotypes in the personality of modern Uzbeks. S. Bem's questionnaire called "Sex Role Inventory (BSRI)" was used as a basis for the research. According to research, the concept of androgyny presented by S.Bem is studied and the degree of manifestation of gender stereotypes in the personality of modern Uzbeks is determined and analyzed.

Kalit so'zlar: Shaxs, gender, gender stereotip, androginiya, o'zbeklar.

Ключевые слова: Личность, гендер, гендерный стереотип, андрогиния, узбеки.

Key words: Personality, gender, gender stereotype, androgyne, Uzbeks.

KIRISH

Stereotiplar guruh yoki ijtimoiy toifaga oid statik va o'ta soddalashtirilgan g'oyalalar bo'lib, kundalik hayotda ular bizning taxminlarimiz va xatti-harakatlarimizga kuchli ta'sir qiladi [5]. Gender stereotiplari esa erkak va ayollarning xulq-atvori to'g'risida taxminlarni shakllantiradi [3, 84]. Ya'ni gender stereotiplari – bu ayol va erkak ijtimoiy xususiyatlarining turli madaniyatlarda turlicha tavsiflangan tushunchalardir. Bugungi kunda ayol va erkak shaxsiyati bilan bog'liq stereotipik qarashlar madaniyatlar kesimida turli xildir.

Ma'lumki, o'g'il va qiz bolalarda turli ko'nigmalar va psixologik xususiyatlarning tarbiyalanishi, xotin-qizlar va erkaklar o'rtafigi mehnat taqsimoti, jamiyatda qabul qilingan madaniy moyorlar, rollar va qarashlar gender farqlanishni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Shuni qayd etish lozimki, turli jamiyatlarda ushbu jarayon u yoki bu jamiyatda qabul qilingan muayyan andozalarga mos

TARIX

ravishda turlicha kechadi. Shu munosabat bilan erkaklar va xotin-qizlar muayyan gender standartlarga mos ravishda gender rollarni bajaradi, biroq ushbu rollar ularga tabiatan, ularning biologik rivojlanishiga mos ravishda berilgan emas. "Gender" tushunchasining kiritilishi shuni anglashga yordam beradiki, jamiyatdagi erkaklar va xotin-qizlar rollari ijtimoiy jihatdan tashkil topadi va belgilanadi [2, 25]. Shu o'rinda shaxs xususiyatidagi erkaklik va ayollik xislatlarining namoyon bo'lish darajasini o'rganish hamda ularni madaniyatlar kesimida tahlil qilish dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot predmetidan kelib chiqib, biz ham asosiy e'tiborni o'zbeklarning shaxsiyatida gender xususiyatlarining namoyon bo'lishini aniqlashga qaratib, buni Namangan viloyati ya'ni dinamik tarzda rivojlanayotgan madaniyat misolida tahlil qilamiz. Tadqiqot S.Bemning "Jins rolining inventozatsiyasi³⁹ (Sex Role Inventory (BSRI))" nomli so'rovnomasi asosida o'tkazildi. S.Bem tomonidan keltirilgan androginiya tushunchasi o'rganiladi. Mazkur metodika psix.f.d, dots. Z.A.Rasulova bilan birgalikda mahalliy aholiga moslashtirilib, modifikatsiya qilindi va jami 90 (40 ta erkak va 50 ta ayol)ta respondentda o'tkazildi.

Qo'llanilgan metodika haqida tushuntirish beradigan bo'lsam, "Jins rolining inventozatsiyasi (BSRI)" so'rovnomasi amerikalik psixolog Sandra L.Bem tomonidan 1974-yilda ishlab chiqilgan. BSRI metodikasi jinsi psixologik tashxislash uchun ishlataladi va shaxsning quyidagi turlarini aniqlashga imkon beradi: erkak, ayol va androgin⁴⁰. Anketada 60 ta shaxsga xos xarakter xususiyatlari keltiriladi. BSRI metodikasi xorij va rus gender tadqiqotlaridagi eng mashhur so'rov hisoblanib, u turli kontekslarda: Yaponiya, Rossiya, AQShda tadqiq qilingan, shuningdek, afro-amerika ayollari va lotin o'smirlari o'rtaida o'tkazilgan [1]. Lekin boshqa tomonidan uning qo'llanilishida olingen natjalarning ishonchliligi nuqtai nazaridan ko'pincha turli sabablarga ko'ra tanqid qilinadi. Bular:

Birinchidan – metodikadan noto'g'ri foydalanish, ya'ni, tadqiqotchilar ko'pincha so'rovnomaning tarjima qilingan, ammo modifikatsiya (madaniyatga moslashtirish) qilinmagan versiyasidan foydalanish uning haqiqiylik talabini buzadi;

Ikkinchidan – olingen ma'lumotlarni sharhlashda muallif tomonidan nazarda tutilgan konseptual asosdan chetga chiqadilar, ya'ni natjalarni ayollik va erkaklikning muhim shaxsiyatlari sifatida taqdim etadilar [4].

Shunday ekan, biz tadqiqotimizda bu kamchiliklarga yo'l qo'yman holda, shaxsning ayollik, erkaklik yoki androginiy xususiyatlarini madaniy antropologik va etnopsixologik asosda tahlil qildik.

Tadqiqot natijalarida indeks $-1 \leq t \leq 1$ dan past bo'lsa ($-2,025 < t \leq -1$), unda erkaklik haqida, agar indeks $+1 \leq t \leq 2,025$, ayollik haqida xulosa qilinadi, agar indeks $+2,025 < t \leq 2,025$, ular aniq ayollik haqida gapirishadi va agar indeks $-2,025 < t \leq -1$, ular aniq erkaklik haqida gapirishadi. Agar indeksning qiymati $-1 \leq t \leq 1$ ga bo'lsa ($-1 \leq t \leq 1$), unda androginiya to'g'risida xulosa qilinadi. (1-jadval).

1-jadval**S.Bem so'rovining o'Ichovlari**

No	Hislatlar	O'Ichovlari
1	Qat'iy ayollik	$t \geq 2,025$
2	Ayollik	$1 < t < 2,025$
3	Androginiy	$-1 \leq t \leq 1$ <div style="display: flex; justify-content: space-between;"> <div style="flex: 1;"> Ayollik ustun androgin $1 \leq t \leq 0$ </div> <div style="flex: 1;"> Erkaklik ustun androgin $-1 \leq t \leq 0$ </div> </div>
4	Qat'iiy erkaklik	$t \leq -2,025$
5	Erkaklik	$-2,025 < t \leq -1$

Bu metodika asli shaxs hislatlaridagi androgin darajasini aniqlashga yo'naltirilgan. Metodika nafaqat androginiy darajasini, balki turli jamiyatlar, madaniatlardagi insonlarning ayollik va erkaklik

³⁹Inventorisi – bir joydagi barcha narsalarning bat afsil ro'yhati hisoblanib, bu yerda gender rollarining umumiyligini yig'ilgan miqdori nazarda tutiladi.

⁴⁰Androginiya – aniq erkak yoki ayol bo'lmagan ko'rinish bo'lib, an'anaviy ravishda ayol va erkaklar xususiyatlarining kombinatsiyasi sifatida tavsiflanadi.

xususiyatlarining darajasini ham aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, bu bizga adroginiylik xususiyatining 2 xil ko'rinishi: ayollik hislatlari ustun androgin ($1 \leq t \leq 0$) va erkaklik hislatlari ustun androginlik ($-1 \leq t \leq 0$) xususiyatlarini ham alohida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz predmetiga ko'ra so'rovnomani to'ldirishda respondentlardan aynan o'zlarining shaxsiy xususiyatlardan kelib chiqib emas, balki, o'z madaniyatlaridan kelib chiqib to'ldirishlari: 1-madaniyatidagi ayollarga xos xususiyatlarini belgilash; 2-madaniyatidagi erkaklarga xos xususiyatlarini belgilash so'raldi. Bu bilan metodikaning aslida e'tibor qaratilgan shaxsning o'z shaxsiyatidagi fikrlarini emas, balki shaxsning o'z madaniyatiga xos fikrlarga e'tibor qaratdik. Shuningdek, erkak va ayol haqidagi stereotipik hislatlarni o'zbeklar mentalitetidagi steretipler bilan moslagan holda modifikatsiya qildik. Tadqiqot natijasi bizga har bir jins vakillarining nafaqat o'z guruh a'zolari – ayolning ayollar va erkakning erkaklar haqidagi ayollik va erkaklik xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, boshqa guruh a'zolari – ayollarning erkaklar va erkaklarning ayollar haqidagi ayollik va erkaklik xususiyatlarini bilan bog'liq stereotipik qarashlarni ham aniqlash imkonini beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ayol va erkaklar xususiyatlarining kombinatsiyasi (aralashmasi) sifatida tavsiflangan androginiya:

- vaziyatga qarab insonning xatti-harakatlarini o'zgartirish qobiliyatini belgilaydigan uning muhim psixologik xususiyati hisoblanadi;
- an'anaviy ravishda ayol va erkak fazilatlari deb hisoblangan harakter-xususiyatlarining hayotda teng darajada qo'llanilishiga imkon beradi;
- stressga qarshilikni shakllantirishga va hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Androginiya nazariyasiga ko'ra, insonning har qanday sohalardagi faoliyatining samaradorligi paydo bo'lgan vaziyatlarga mos ravishda va jinsga qarab o'z xatti-harakatlarini cheklamagan holda ayollik hamda erkaklik fazilatlarini namoyon qilish qobiliyatiga, ya'ni har bir shaxs bir vaqtning o'zida ham ayollik, ham erkaklik xususiyatlariga ega bo'lish qobiliyatiga ega deb taxmin qilinadi [4].

Tadqiqotimizda shaxs stereotiplarining shakllanishida madaniyatning ta'sirini va uning asosini aniqlash uchun respondentlardan o'zlarining shaxsiyatidan kelib chiqib emas, balki o'z madaniyatidagi insonlarga xos ayollik va erkaklik xususiyatlarini ko'rsatishlari so'raldi. So'rov natijalariga ko'ra, namanganlik o'zbeklar uchun androginlik xususiyatining erkaklarga ham, ayollarga ham bir xilda xosligini va ikkala jins uchun ustunligini ko'rishimiz mumkin (1-2-3 jadvallar).

**1-jadval
(Erkaklar)**

№	Erkaklarga bergen tavsifi			Ayollarga bergen tavsifi		
	Erkaklik	Ayollik	Androgin	Erkaklik	Ayollik	Androgin
1	0,95	0,7	-0,58	0,75	0,9	0,35
2	1	0,55	-1,05	0,35	0,85	1,16
3	0,85	0,7	-0,35	0,7	0,8	0,23
4	0,9	0,75	-0,35	0,2	0,85	1,51
5	0,9	0,75	-0,35	0,85	0,85	0
6	1	0,75	-0,58	0,45	0,75	0,70
7	0,95	0,45	-1,16	0,4	0,8	0,93
8	0,85	0,6	-0,58	0,4	0,95	1,28
9	0,7	0,7	0	0,65	0,85	0,46
10	0,65	0,75	-0,23	0,8	0,95	0,35
11	0,75	0,75	0	0,95	1	0,12
12	0,95	0,65	-0,70	0,35	0,8	1,05
13	0,85	0,55	-0,70	0,35	0,8	1,05
14	0,95	0,7	-0,58	0,85	0,95	0,23
15	1	0,8	-0,46	0,4	0,85	1,05
16	0,9	0,75	-0,35	0,5	0,85	0,81
17	0,95	0,7	-0,58	0,35	0,8	1,05

TARIX

18	0,9	0,75	-0,35	0,4	0,8	0,93
19	0,95	0,7	-0,58	0,4	0,95	1,28
20	0,9	0,75	-0,35	0,35	0,8	1,05
Jami:	0,85	0,69	-0,48	0,52	0,86	0,78

n=20 n=20 n=20 n=20 n=20 n=20 n=20

2-jadval
(Ayollar)

№	<i>Erkaklarga bergen tavsifi</i>			<i>Ayollarga bergen tavsifi</i>		
	Erkaklik	Ayollilik	Erkaklik	Ayollilik	Erkaklik	Ayollilik
1	0,8	0,45	-0,81	0,65	0,85	0,46
2	0,6	0,35	-0,58	0,8	0,75	-0,12
3	0,95	0,75	-0,46	1	1	0
4	1	1	0	0,75	0,5	-0,6
5	0,9	0,85	-0,11	0,8	0,95	0,35
6	0,45	0,25	-0,46	0,75	0,85	0,23
7	0,25	0,45	0,46	0,8	0,8	0
8	0,6	0,9	-0,70	0,3	0,95	1,5
9	0,85	0,7	-0,35	0,7	0,8	0,23
10	0,75	0,3	-1,05	0,3	0,5	0,46
11	0,55	0,8	0,58	0,4	0,8	0,93
12	0,8	0,55	-0,35	0,7	0,75	0,12
13	0,6	0,7	-0,23	0,45	0,9	1,05
14	0,2	0,4	0,46	0,75	0,85	0,23
15	0,85	0,75	-0,23	0,85	0,85	0
16	0,4	0,25	-0,35	0,7	0,8	0,3
17	0,75	0,55	-0,46	0,45	0,8	0,81
18	0,75	0,75	0	0,3	0,85	1,28
19	0,9	0,55	-0,81	0,9	0,9	0
20	0,75	0,55	-0,46	0,6	0,8	0,5
21	0,75	0,7	-0,12	0,7	0,9	0,46
22	0,4	0,9	-1,16	0,35	0,7	0,8
23	0,55	0,75	0,46	0,6	0,9	0,7
24	0,8	0,8	0	0,75	0,85	0,3
25	0,55	0,45	-0,23	0,3	0,85	1,28
Jami:	0,67	0,62	-0,32	0,63	0,82	0,45
	<i>n=25</i>	<i>n=25</i>	<i>n=25</i>	<i>n=25</i>	<i>n=25</i>	<i>n=25</i>

3-jadval
(Umumiy)

Shaxs xususiyatlarining turlari	Erkaklarning fikrlari		Ayollarning fikrlari	
	Erkaklar n=20	Ayollar n=20	Erkaklar n=25	Ayollar n=25
Erkaklik shkalasi	0,85	0,52	0,67	0,63
Ayollilik shkalasi	0,69	0,86	0,62	0,82
Androginiylik shkalasi	-0,48	0,78	-0,32	0,45

Xususan, erkaklarda o'z madaniyatiga xos erkaklik xususiyatlari o'rtacha $M=-0,45$ koefitsentda, ayollarning qarashida ham erkaklarning o'z madaniyatiga xos erkaklik xususiyatlari $M=-$

0,32 koefitsentda namoyon bo'ldi. Ularning farqi $r=-0,16$ ga teng. Bundan ko'rindaniki, ayollar bilan erkaklarning o'lchovlari o'xhash, bir-biriga juda yaqin. Bu esa erkaklarda ko'proq androginiy xususiyatining ustunligini ko'rsatdi. Buni ikkala jins vakillari ham birdek tasdiqlashgani bilan asoslashimiz mumkin. Shu o'rinda aynan androginiyning erkaklik hislatlari ustun bo'lgan ($-1 \leq t \leq 0$) turining ahamiyatli ekanligini ta'kidlash mumkin.

Namanganliklar hayotida garchi tashqaridan ayollarning ayollik xislatlari ustundek ko'rinsada, ularning ijtimoiy hayotida, turmush tarzida va madaniyatida buning boshqa ko'rinishini tadqiqotimiz asosida aniqladik, ya'ni, o'zbek ayollarida ham androginiy xususiyati ustun hisoblanadi. Buni ayollarning ($F=0,45$) o'zi ham, erkaklar ($F=0,78$) ham $r=0,33$ farq bilan tasdiqlashdi. Bunda ayollar o'zlarining nazdida ancha muqobil androginiy hisoblansa, erkaklar nazdidan esa ayollik xususiyati ustun androginiy ($1 \leq t \leq 0$) hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxslararo munosabatlarda androginiy – an'anaviy ravishda ayol va erkak fazilatlari deb hisoblangan xarakter xususiyatlarining hayotda teng darajada qo'llanilishi, ular bilan bog'liq muammolarning kam bo'lishi, muammolarning oson yechimi bilan xarakterlanadi. O'zbeklar hayotida gender xislatlarining o'ziga xosligida androginiyning ustunligi bilan xususiyatlanishini umumiylis hisobda 89% ga tengligi bilan ham asoslash mumkin (4-jadval).

4-jadval

	“Jins rolining inventozatsiyasi” so'rov natijasi (foiz hisobida)					
	Erkaklik		Ayollik		Androginiya	
Ayollar (n=25)	-	-	3	12%	22	88%
Erkaklar (n=20)	2	10%	-	-	18	90%
Jami:	2	4%	3	7%	40	89%

Demak yuqorida tahlillardan xulosa qiladigan bo'lsak, androginiya – bu ayollik hamda erkaklik fazilatlarini teng namoyon qilish qobiliyatiga, ya'ni har bir shaxs bir vaqtning o'zida ham ayollik, ham erkaklik xususiyatlariga ega bo'lish.

Kuzatuv asosida olgan materiallarimiz shuni ko'rsatadiki, namanganlik o'zbek oilalarida erxotin, ona-o'g'il, ota-o'g'il, qaynona-kelin munosabatlari etnoregional o'ziga xosliklar mavjud. Oilada o'g'il farzand tug'ilishi qiz farzand tug'ilishiga nisbatan ko'proq xursandchilikka sabab bo'lishi va qiz farzanddan ko'ra o'g'il farzanlarga bir muncha yengillik hamda erkinlik berilishi O'zbekistonning deyarli barcha hududida kuzatilsa-da, namanganliklar bunga jiddiyroq va ko'proq e'tibor qaratishlari bilan farqlanadi. Masalan, Xorazm viloyatida bu jarayonga yengilroq qarashadi. Buni qisman nikoh to'yi bilan bog'liq marosim xarajatlarining asosiy og'irligi o'g'il bola gardaniga tushishi bilan izohlash mumkin. Bu esa qiz bolaning tug'ilishi bilan bog'liq norozilikni bir muncha susaytiradi [6]. Aynan o'g'il bolalarning imkoniyati qizlarga nisbatan ko'pligini namanganliklar uchun nikoh yoshi qizlarda 17-19 bo'lganligi, 20 yoshdan oshgan qiz "o'tirib qolgan" qiz sifatida qaralishi, qizlarning faqat oila xo'jaligi yurutuvchisi, nasl davomiyligini ta'minlovchisi sifatida ko'riliishi, ularning o'qishi, ta'lim olishi ikkinchi darajali ekanligi bilan ham asoslash mumkin [7].

Shuningdek, o'zbek oilalarida *sabrlik*, *chidamlilik*, *kuchlilik*, *toqatlilik*, *itoatilik* kabi xislatlar qiz farzandlarga ko'proq singdiriladi. Chunki turmushga chiqqanida qiz o'z ota uyidan yangi uyg'a ketadi va shu uyda turmush zaxmatlariga bardoshli, chidamlı bo'lishi uqtiriladi. Bu xislatlarning yarmi erkakka xos bo'lsa, yarmi ayolga xosdir, shuning uchun ham ayollar xususiyatlarida androginiy ko'rinish ustun bo'lib chiqdi [7].

O'zbek erkaklaridagi androginiyning ustunligini esa farzand tarbiyasida erkak kishining ishtiroki kamligi bilan ham bog'lash mumkin. Bu bir nechta omillar bilan bog'liq. Avvalo, bu o'rinda migratsiyaning o'rnini alohida ta'kidlash kerak. Ma'lumki, O'zbekistonda xususan, Namangan viloyatida aksariyat erkaklar mavsumiy ishlarda ko'proq band bo'lib, ular uyidan uzoqda ishlaydi. Farzand otani kam ko'rib, asosan ona bilan ko'proq vaqt o'tkazadi. Shu bilan birga, uydan uzoqda ishlagagan erkaklarning aksariyati farzand tarbiyasida deyarli ota sifatida ishtirok etmaydi. Shuningdek, ayollar ham otaning borligi, uning shaxsiy xususiyatlari haqida farzanlariga tushuntirish bermaydi [8]. Shuning uchun ham aksariyat namanganlik erkaklarda ayrim erkaklik xislatlarining namoyon bo'lish darajasi past yoki namoyon bo'lmaydi. Buni erkaklar nazdida *atletik tana tuzilish* (*sportsmenlarga xos*), *qaror qabul qilish tezligi*, *so'zini o'tkazish* (*ko'picha onalarga nisbatan*),

TARIX

yetakchilikka moyillik, raqobat ruhi va izzattalablik xususiyalarining yo'qligi, ayollar nazdida esa aynan shu xususiyatlar bilan birga o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqillik, kuchli shaxs, analitik tahlil qilish qobiliyati, individualizm (o'ziga xoslik), o'z pozitsiyasiga ega bo'lism xislatlarining yo'qligi bilan tasdiqlashlari ularning androginiylikka og'ishini kuchaytirishini asoslaydi [8].

XULOSA

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbeklar hayotida gender xisatlarning namoyon bo'lishi asli ko'rninganidek (ayollarda ayollik erkaklarda erkaklikning ustunligi) emas, balki androginlikning ustunligi aniqlandi. Buni oiladagi farzand tarbiyasida erkak kishining ishtiroki kamligi, shuningdek, qizlarni tarbiyasida ayollik bilan birga erkaklik xislatlarining ham shakllantirilishi bilan asoslandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Берн, Ш.М. (2002) Гендерная психология. СПб.: Прайм-ЕвроЗнак. 320 с.
2. Алимжонова, Д. (2007) Гендер ва ривожланиш / гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш (илмий мақолалар тўплами). т.. б. 421
3. Санюкович, Д. В. (2013) Гендерные стереотипы в английских пословицах и поговорках // Научные стремления 4 (8)'13, 82-86.
4. Лопухова, О.Г. (2013) Опросник «маскулинность, феминность и гендерный тип личности» (российский аналог «bem sex role inventory») // Вопросы психологии. № 1., 1-8.
5. Pedro, B., Katherine, C., Nicola, G., Andrei, Sh., (2016) Stereotypes // The Quarterly Journal of Economics. July 19, 1753-1794.
6. Dala ekspeditsiya natijalari. Xorazm viloyati. Xiva, Qo'shko'pir, Urganch shahar va tumanlarida. 2013.
7. Dala ekspeditsiya natijalari. Namangan viloyati. 2021.
8. IPS natijalari. Namangan viloyati. 2021.